



ABDUQAYUM YO'LDOSHEV QISSALARI BADIYATI

Muhayyo Yo'ldosheva

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti dotsent v.b., filologiya fanlari nomzodi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21191223>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abduqayum Yo'ldoshev qissalarining badiiy xususiyatlari, g'oyaviy-badiiy mazmuni hamda yozuvchi uslubining o'ziga xos jihatlari tadqiq etiladi. Adib qissalarida inson ruhiyati, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, milliy tafakkur va zamonaviy hayot muammolarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Shuningdek, asarlardagi obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiya, badiiy detal, ramz va timsollarning estetik vazifasi adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan baholanadi. Yozuvchining individual uslubi, til va badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati hamda qissalarining zamonaviy o'zbek nasri taraqqiyotidagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Abduqayum Yo'ldoshev, qissa, badiiyat, badiiy mahorat, obraz, syujet, kompozitsiya, badiiy detal, ramz, timsol, psixologizm, uslub, badiiy til, zamonaviy o'zbek nasri.

Abstract. This article examines the artistic features, ideological and artistic content, and specific aspects of the writer's style of Abdukayum Yuldoshev's stories. The writer's stories analyze the artistic interpretation of the human psyche, spiritual and moral values, national thinking, and problems of modern life. Also, the system of images in the works, plot and composition, artistic details, the aesthetic function of symbols and emblems are evaluated from the point of view of literary criticism. The writer's individual style, the skill of using language and artistic means of depiction, and the role of his stories in the development of modern Uzbek prose are scientifically highlighted.

Keywords: Abdukayum Yuldoshev, story, art, artistic skill, image, plot, composition, artistic detail, symbol, emblem, psychologism, style, artistic language, modern Uzbek prose.

Аннотация. В данной статье рассматриваются художественные особенности, идеологическое и художественное содержание, а также специфические аспекты стиля писателя Абдукаюма Юлдошева. Анализируется художественная интерпретация человеческой психики, духовно-нравственных ценностей, национального мышления и проблем современной жизни. Также с точки зрения литературной критики оценивается система образов в произведениях, сюжет и композиция, художественные детали, эстетическая функция символов и эмблем. Научно освещаются индивидуальный стиль писателя, мастерство использования

языка и художественных средств изображения, а также роль его рассказов в развитии современной узбекской прозы.

Ключевые слова: Абдукаюм Юлдошев, рассказ, искусство, художественное мастерство, образ, сюжет, композиция, художественная деталь, символ, эмблема, психологизм, стиль, художественный язык, современная узбекская проза.

A. Yo'ldoshning adabiy jamoatchilikda anchagina shov-shuv bo'lgan asari «Timsohning ko'z yoshlari» qissasi to'laligicha hikoyachi nutqidan iborat. Hikoyachi ishxonasidagilarni, umuman, atrofdagi ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarni biroz yumor aralash kinoya bilan ta'riflaydi. Bu qissada butun syujet chizig'i, qahramonlar shaxsiyati, xatti-harakati, voqelik va voqea-hodisalar birinchi shaxs – men – hikoyachi nutqi orqali namoyon bo'ladi. Hikoyachi qahramonlar portretini chizishga juda usta. Kutilmagan o'xshatishlar, yengil qochirimlar qilishni yaxshi ko'radi. Borni boriday, ortiqcha sayqallarsiz, shu bilan birga, biror illati bo'lsa, uni biroz bo'rttirib ta'riflash hikoyachi nutqiga xos jihatlardan. Deylik, hamkasabasi Munisaning ovqatlanishi haqida shunday deydi:

«E xudo, siz chumchuq dasturxondan ushoq cho'qilaganini ko'rganmisiz? ...O'zi deng, jismiyam ushoqqina edi-da. Yana esimda qolgani: ingichka barmoqlari shu qadar nozik ediki, qalamni sal qattiqroq qissa bas, ular duv to'kilib tushadigandek edi. O'zg'in qiz-juvonlarga nisbatan g'ayirligini yashirib o'tirmaydigan Salomat opa ham tan berib, qizning barmoqlarini «pianinochiniki» deb yuborgandi bir gal... Odmigina kiyinishi bizning davrimizdagi sipo o'ninchi sinf qizlarini eslatadigan Munisa ildam borib... choy suzib berar, ammo o'zi sira biz bilan emin-erkin o'tirib ovqatlanmasdi: nari borsa bitta pechenye yoinki yarimta qatlama somsa yerd, xolos. Tasavvur qilayapsizmi, og'izni kattaroq ochsangiz, ikkitasi sig'ib ketadigan qatlama somsaning yarmini!...».

Hikoyachining o'ziga qanchalar bino qo'yganiyu qanchalar qorin bandasi, tirikchilikning itoatkor bandisi ekanligi shu tasvirdan ayon ko'rinib turibdi. Chunki hikoyachi Salomat opaning maqolalarni tuzatib, nashrga ruxsat berishi uchun mualliflar tashlab ketgan pechenye-somsagami og'zi tegishini bilgani bois ham ularning opaxon bilan munozarasi, bekordan-bekorga yugurib yoki yalinib yurishlarini indamay kuzatadi. «Menga nima?» qabilida qo'l siltab, hech narsaga aralashmaydi.

«Mening yana bir aqidam: birovlarining mashg'ulotiga burun suqmaslik. ... Asosiysi, talabim darajasida ishlab tursa, bas. ...Xom sut emgan bandamiz, axir: birovning g'am-tashvishi hech qachon yuragimizni astoydil jizillatmaydi, sal-pal qitiqlab o'tadi, xolos».

Hikoyachi o'zgalarning muammosidan ancha xoli yurishi boisini o'zidan izlab ko'rmaydi. Balki bu xom sut emgan bandalarning barchasiga xos, deb o'ylaydi. Shu tufayli ham Munisa taqdirini o'zining allaqanday ta'birnomalariga moslab olishga urinayotgan opaxonning ishlariga aralashmaydi. Qizchani o'z holiga qo'ying, demaydi. Oiladagi uch qizning kenjasi bo'lgan Munisaning o'zi bunday deyishga esa haddan tashqari tortinchoqlik, jur'atsizlik qilardi. O'lis viloyatdan kelgan qizning propiskasi yo'q, otasi nafaqaxo'r, onasi kasalmand. Ikki opasi esa bolalari bilan andarmon. Pul ishlab topish uchun ba'zan mol semirtirib sotadigan otasi bu ishda faqat zarar ko'radi. Ne hasrat va xarajatlar evaziga parvarishlagan molini arzimagan pulga dallollarga berib keladi. Insultni boshidan o'tkazgan onasining esa yosh boladan farqi yo'q, alohida parvarishga, mehrga muhtoj. Shu bois qizning suyanchig'i ham, qarashuvchisi yo'q, aksincha, o'zi ota-onasiga amallab pul yuborib turadi. Va mana shu muammolar gidobida yashayotgan Munisani Salomat opa o'z nazariyalarini amalga oshirish vositasi qabul qilaroq, hol-joniga qo'ymaydi, tushlariyu uning ta'birlari haqdagi so'rovlari jonidan to'ydiradi:

«...so'rovlardan bezillab qolgan qizning seskanish aralash iztirobli qiyofasi bot-bot nazaringa tushavergach, ...ko'rdimki, opa miyasiga nimadir o'rnashib qolgan bekorchi ayollarga xos o'jarlik va qat'iyat bilan Munisaning ham ongiga nimanidir tiqishtirishga jon-jahdi bilan harakat qilmoqda edi».

Abduqayum Yo'ldosh mahorati shundaki, u bugungi kun odami – zamonaviy o'zbekning aslida qanday bo'lishini juda yorqin ko'rsatib, aytish mumkinki, portretini chizib bera olgan. Bugungi kun odami boshqalarning ishiga yo tomoshatalabligi, yoki o'ta faol (kirishuvchan, aktiv)ligi va yoxud ish yuzasidan – xizmat vajidangina aralashadi. Shu uch jihat bo'lmasa, hech kimning hech kim bilan ishi bo'lmay qoladi: «U o'lib ketsa ham – mayli». Qissa qahramonlari shunday odamlardan. Salomat opa – o'ta faoligi, hikoyachi – loqaydligi tufayli, shu bilan birga, ish yuzasidan Munisa taqdiriga daxl qilishadi. Abduqayum Yo'ldosh bugunning shiddati, manfaatparastligi, hisob-kitobi, sovuq aql ustunligida Munisaday odamlar o'z o'rnini topolmasligi, bunday pokiza hilqatning bugungi kun odami bo'lolmasligi, baxtga erisha olmasligini ko'rsatadi. Chunki bugungi kunda iymon, insof, andisha ayb, qusur sanaladi, bunday sifatlarga ega odam ojiz, jur'atsiz tuyuladi. Va shunday munosabat hukm surgan joyda bu odamning baxtli bo'lishiga atrofida gilarining o'zlari yo'l qo'yishmaydi.

Abduqayum Yo'ldosh asarlari muvaffaqiyatining siri shundaki, muallif har bir qahramonni uning tabiatiga muvofiq ish bilan ta'minlagan. Deylik, hikoyachi day hech narsani e'tibordan chetda qoldirmaydigan, sinchkov, shu bilan



birga, zarra qadar manfaati uchungina birovni qurbon qilishga tayyor odam o'ziday mayda, mehnati qora, unumi og'ir ish bilan shug'ullanishga mahkum. Yana u shu holiga o'zini juda buyuk odam, atrofdagilardan har tomonlama bir bosh baland turadigan Shaxs deb biladi.

Tush ta'birlariyu yigit-qizlarni bir-birlariga yaqinlashtirishdan bo'shamaydigan befahm Salomat opa shu ishchan, «dono» hikoyachining boshlig'i – istarshoy korrektor. Har daqiqada eski maktabning ustunligini ta'kidlayveradigan bu ayol o'zining vaqti ishxonada ham, hayotida ham o'tib bo'lganini intuitiv tarzda payqaydi va nima qilib bo'lsa hamki, o'z nazdida tushib ketayotgan obro'sini ko'tarish, imijini tiklashga urinadi. Uning Munisaga yopishib olganligini boisi ham shunda. Shu qiz taqdiri misolida opaxon o'zining qanchalar dono, zukko, uzoqni ko'radigan, salkam bashoratchi ekanligini ko'rsatmoqchi edi. Shu bois ham uning taqdiriga kishi ensasini qotirar, g'ashini keltirar darajada aralashaverdi. Natija esa ayon: «Podachi ko'paysa, poda harom o'ladi», ya'ni birgina Munisaning taqdiri juda ko'p kishilarning nazoratida ekanligi tufayli u izchil tarzda qat'iyat bilan izdan chiqa boshladi.

Salomat opani bu dunyoga bog'lab turadigan narsa munajjimlar bashorati bilan tush ta'birlari, deya bemalol aytish mumkin. Opa bu narsalarga o'ta darajada, e'tiqod qo'yar darajada mukkasidan ketgan. Hatto opa ularga e'tiqod qo'ygan, deyish ham mumkin. Azaldan ma'lum, yolg'on e'tiqod sohibining o'zligini, insoniy qiyofasini mahv etib boradi. Har bir inson dunyo ichida alohida dunyodir, bir odamni boshqasining g'oyalarini bajarishga majburlash jinoyat. Munisa Salomat opaning hayotiy falsafasini amalga tadbqiq etishga majbur qilingani ham zug'um, jinoyat, shafqatsizlik edi.

«Qiz bechora ayanchliroq jilmayar, qisinar, o'zini qayerga qo'yishni bilmay qolar, yuzi lovullar... Shunda... opa... baayni kimdir arpasini xom o'rib ketganday pishillab uh tortar, xo'rsinar... so'ng yig'lamsiragan alfozda nolishga tushib ketardi: «E, xudo, buning nimasi qiyin axir, shundoq yotib, shundoq o'ylasang bas, kiradi-qo'yadi».

Shu o'rinda qahramon o'z tinchi buzilgani, bu seriddao shikoyatlar asabini o'ynatgani uchun Salomat opadan emas: «O'sha oting o'chgir timsohni bir marta tushda ko'rib chiqish rostdan ham shuncha qiyin ishmikin?!» deb Munisadan o'pkalaydi. Asarda ishtirok etgan barcha qahramonlar hayotdagi omadsizliklari alamini Munisadan olishga intilishadi. Salomat opa noshud erining, hikoyachi kamxarjligining, posbon janjalkash, qo'li yugurik xotining alamini Munisadan oladi. Aytish mumkinki, shu masalada Posbon boshqa obrazlarchalik vijdonsizlik qilmaydi: o'zini qizga mehribon, homiy ko'rsatmaydi. Boshida ham agar Salomat



opa shu qadar jonbozlik ko'rsatib, qizni unga tortiq qilmaganida u qaytib qorasini ko'rsatmagan, Munisa bilan umuman uchrashmagan bo'lardi. Salomat opa uchun qiz ermak, ovunchoq: opa ko'nglida yillar davomida yig'ilgan va yig'ilishda davom etayotgan alamu zahar-zaqqumlardan chalg'iydi. Har biri o'zicha baxtsiz bo'lgan asar qahramonlari o'zlaridan-da baxtsizroq ojiza borligidan qanoat hissini tuyib, qizni baxtli qilishga o'zlaricha urinishadi. Aslida ular shu orqali o'z omadsizliklarini unutish, to'g'rirog'i, qizdan omadliroq ekanligini o'zlariga isbotlashga urinishadi.

Hikoyachi Salomat opani qoralab, hatto aqliy salohiyatini shubhaga olib, biroz tepadan kelib, mensimay, ba'zi o'rinlarda ermaklab gapirgani holda mudom uning yo'rig'iga yuradi: «Sizam gapiring-da endi munday erkakka o'xshab». ... axiri bir kuni ... dabdurustdan timsoh terisini maqtab ketdim: «Sumkasini ayting... Shunaqa poyabzal bilan... Qayishning dodasi...» ...har tugul, qovun tushirib qo'ymadimmi deb ko'z qirimni tashlasam, yo'q, baayni o'zi haqida iliq gap eshitayotganday opa yayrab o'tiribdi, Munisa bo'lsa yana bir qo'lyozmadan panoh topgan... ». Ha, bechora qiz odamlardan emas, jonsiz qog'ozdan panoh topadi. Muallif inson fe'l-atvorini uning harakatlari bayoni asnosida o'quvchi ko'z o'ngiga keltirib qo'yadi. Kitobxonga qahramon unday edi-munday edi, demay hayotiy vaziyatda tutayotgan yo'lini tasvirlash orqali obraz xarakterini gavdalantiradi. Yuqoridagi tasvirdan Munisaning qanchalar g'arib, siniq, andishasiga qul, birovga e'tiroz bildirgandan ko'ra o'z ich-etini yeb yuraverishni afzal biladigan qiz ekanligi ko'rinadi. Ismi ham fe'lga mos tanlangan: Munisa. Ismining o'ziyoq kishida ezgin, shafqattalab tuyg'ular uyg'otadi. Umuman olganda, A. Yo'ldosh asarlarida hamma qahramonlarga ham ism qo'yilavermaydi. «Timsohning ko'z yoshlari»day salmoqli, zalvorli qissada ham sanoqli obrazlarning ismi aniq: Salomat opa, Munisa, Kaloniy domla, Toyir, Mixliboy guppi. Bosh obrazlar bo'lmish Hikoyachi, Munisaning dugonasi, Posbontoylarga ism qo'yilmagan. Muallif atay shu tarzda yo'l tutgan, deb o'ylayman. «Chunki ot «men»ni, o'zlikni talab qiladi. Shoir aytmoqchi «nom nomusga egadir». Qissaning ko'pchilik qahramonlarida esa aynan nomusdan nishona yo'q». Qadimda turkiylarda bir an'ana bo'lgan ekan: tug'ilgan o'g'il bola to arziqli biror ish, qahramonlik ko'rsatmaguniga qadar 10, hatto 15-20 yoshgacha ham atalmay, ism qo'yilmay yuravergan. Inson atalishga, chaqirilishga munosib bo'lishi lozim sanalgan. Ismi jismiga, tutumiga nomunosiblarni barchamiz kabi ko'p ko'rgan yozuvchi ham arziyas hisoblagan asar ishtirokchilarini atagisi kelmay, Posbontoy, dugona deb qo'ya qoladi. Hatto o'ziga ham ism qo'ymaydi, buning o'rniga «men», «kamina» so'zlari hamda «man», «-dim», «-im» singari qo'shimchalardan foydalanadi. Chindan ham,

«Timsohning ko‘z yoshlari» qissasini o‘qigan kitobxon buning bejiz emasligiga amin bo‘ladi: asarda voqealar Salomat opa tufayli Munisa hayotida ro‘y beradi. Bosh qahramon hayotidagi fojeaning asosiy aybdori esa hikoyachi. Chunki kishi aytishga ham uyaladigan, umuman eslashga arzimaydigan zig‘irday manfaatini o‘ylab, Posbonning aslida kimligini aytolmaydi, uning barcha qilmishlariga bir chetda hayrixoh tomoshabin bo‘lib turaveradi.

Ko‘rinadiki, A.Yo‘ldosh asarlari inson ruhiyatini tushunish va tushuntirish, yomonlik qilish uchun yovuz bo‘lish shartmasligini o‘rganish va o‘rgatish jihatidan yaxshi manbadir. Bunday asarlarni o‘qish odamni o‘z qobig‘idan tashqariga chiqishga, qulay hudud ezgu hudud degani emasligini anglashga, shu orqali o‘zini isloh qilishga chaqiradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. A. Йўлдош. Бир тун ва бир умр. Янги аср авлоди, 2007 йил, 126 бет.
2. Normatov Umar. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007.
3. Yo‘ldoshev Qozoqboy. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
4. A. Йўлдош. Тимсоҳнинг кўз ёшлари. Янги аср авлоди, 2003 йил, 14-15 бет.

